

O'ZBEKISTONDA EKOTURIZMNING IQTISODIY VA IJTIMOY RIVOJLANISHIGA TA'SIRI

Qilicheva Mexriniso Ne'matjon qizi

Termiz Davlat Universiteti "Turizm va mehmondo'stlik" yo'nalishi

1-kurs magistranti

kilichevamekhriniso@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekistonda ekoturizmning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida ekoturizmning rivojlanish holati, uning aholi farovonligiga va iqtisodiy ko'rsatkichlarga bo'lgan ta'siri o'rganilgan. Shuningdek, ekoturizmi rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan muammolar aniqlanib, istiqboldagi yo'nalishlar va takliflar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: *ekoturizm, barqaror rivojlanish, iqtisodiy ta'sir, ijtimoiy foyda, O'zbekiston, turizm strategiyasi.*

Abstract

This article analyzes the economic and social impact of ecotourism development in Uzbekistan. The study explores the current state of ecotourism and its influence on public well-being and economic indicators. Additionally, the research identifies the challenges hindering the growth of ecotourism and presents potential development directions and recommendations for improvement.

Keywords: *ecotourism, sustainable development, economic impact, social benefits, Uzbekistan, tourism strategy.*

Аннотация

В данной статье анализируется влияние развития экотуризма на экономическое и социальное развитие в Узбекистане. В исследовании рассмотрено текущее состояние экотуризма, его воздействие на благосостояние населения и экономические показатели. Также выявлены проблемы, препятствующие развитию экотуризма, и представлены перспективные направления и рекомендации по его совершенствованию.

Ключевые слова: *экотуризм, устойчивое развитие, экономическое воздействие, социальные выгоды, Узбекистан, стратегия туризма.*

Kirish

So'nggi yillarda turizm sohasi global miqyosda tez sur'atlar bilan rivojlanib, ko'plab mamlakatlar iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotida muhim omilga aylanmoqda. Ekoturizm nafaqat atrof-muhitni asrash, balki mahalliy aholi farovonligini oshirish,

madaniy merosni saqlash hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni targ'ib qiluvchi muhim vositadir.

O'zbekiston ekologik va geografik jihatdan noyob tabiiy zonalarga ega bo'lib, bu hududlar ekoturizm uchun katta salohiyatni namoyon etadi. Jumladan, Chotqol biosfera rezervati, Hisor davlat qo'riqxonasi, Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi, Zarafshon milliy bog'i va boshqa tabiiy manzillar xorijiy va mahalliy sayyohlar e'tiborini tortayotgan ob'ektlar sirasiga kiradi. Davlat tomonidan ekoturizmni qo'llab-quvvatlash borasida ham bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Masalan, "2023–2025 yillarda O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish strategiyasi", "Yashil makon" umummilliy tashabbusi, ekologik hududlarda kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga oid qonuniy me'yorlar va grant dasturlari bu sohaning barqaror taraqqiyotiga xizmat qilmoqda.

Ushbu maqolada O'zbekistonda ekoturizmning iqtisodiy va ijtimoiy ta'siri chuqur tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor ekoturizm orqali yaratilgan yangi ish o'rinlari, mahalliy aholi daromadlarining oshishi, turizm orqali jamiyatda ekologik madaniyatning yuksalishi kabi omillarga qaratiladi. Tadqiqot natijalari asosida ekoturizmning barqaror rivojlanishi uchun ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Metodologiya

Tadqiqotda sifatli va miqdoriy tahlil uslublari qo'llanildi. Ekoturizmning iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirini baholashda mavjud statistik ma'lumotlar, amaliy holatlar (case studies) va mahalliy respondentlar bilan o'tkazilgan so'rovnoma natijalari asos qilib olindi.

Tahlil jarayonida SWOT tahlil usuli (kuchli va zaif tomonlar, imkoniyatlar va tahdidlar) va korrelyatsion tahlil yordamida ekoturizm bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlik o'rganildi.

Natijalar

Tadqiqot natijalari O'zbekistonning ayrim hududlarida ekoturizm faoliyatining iqtisodiy va ijtimoiy sohalarga ko'rsatgan aniq ta'sirini ochib berdi.

Ekoturizmning iqtisodiy ta'siri

a) Ish o'rinlari va bandlik darajasi

So'rovnomada qatnashgan respondentlarning 73 foizi ekoturizm hududlarida yangi ish o'rinlari yaratilgani va mahalliy aholi, ayniqsa, yoshlar va ayollar uchun bandlik imkoniyatlari ortganini bildirgan. Aniq misollar:

- Zarafshon milliy bog'i atrofida 2021–2023 yillar oralig'ida 310 dan ortiq aholi mahalliy ekogid, kulolchilik ustasi, qo'llanma yozuvchi, transport xizmati ko'rsatuvchi yoki mehmon uy egasi sifatida faoliyat boshlagan.

- Chotqol biosfera rezervati hududida 40 dan ortiq mahalliy fermer va tadbirkorlar ekoturizm uchun maxsus yo'naltirilgan agroservis, yurish marshrutlari va tabiiy oziq-

ovqat mahsulotlari yetkazib berish xizmatlariga jalb etilgan. Bu esa, mahalliy iqtisodiyotda sezilarli ijobiy siljishlarni yuzaga keltirdi.

b) Daromad va iqtisodiy faollikning oshishi

Ekoturizm rivojlanayotgan hududlarda oilaviy biznes va mahalliy mahsulotlar (hunarmandchilik buyumlari, quritilgan mevalar, tabiiy kosmetika va boshqalar) orqali aholining daromadlari oshgani aniqlandi.

- Respondentlarning 68 foizi oxirgi ikki yil ichida ekoturizm hisobiga qo'shimcha daromad manbaiga ega bo'lganini bildirgan.

- Urgut tumanida joylashgan 15 ga yaqin oilaviy mehmon uyida yiliga o'rtacha 500–700 turist qabul qilinadi. Har bir oilaning o'rtacha yillik daromadi 45–60 million so'mgacha oshgan.

c) Soliq tushumlari va hududiy budjetga hissa

Ekoturizm faoliyati rasmiylashtirilganligi va xizmat ko'rsatish tarmog'ining kengayishi sababli, mahalliy budjetga tushayotgan soliq hajmlari ortgan. Jumladan:

- Navoiy viloyatida 2023-yilda turizmga oid faoliyatdan tushgan soliq 2021-yilga nisbatan 42% ko'p bo'lgan.

- Ekoturizm sub'yektlari tomonidan to'langan to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita soliqlar hududiy ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirishga xizmat qilmoqda.

Ekoturizmning ijtimoiy ta'siri

a) Ekologik ong va jamiyatdagi ijobiy o'zgarishlar

Ekoturizm orqali aholining ekologik savodxonligi va madaniyati oshgan. Tadqiqot davomida respondentlarning 61 foizi ekologik me'yorlar, chiqindi boshqaruvi, biologik xilma-xillikni saqlash bo'yicha ilgari yetarlicha ma'lumotga ega bo'lmaganini bildirgan, biroq hozirda bu boradagi tushunchalari kengaygani qayd etilgan.

- Tabiiy bog'lar atrofida yashovchi aholining bolalari uchun "Ekologik maktab", ekoskautlar to'garaklari faoliyat boshlagan.

- Ko'ngilli ekologlar soni ko'paymoqda: faqat 2023-yilda 2500 nafardan ortiq yoshlar turli ekologik aksiyalarda ishtirok etgan.

b) Madaniy merosni asrash va tiklashga hissa

Ekoturizm mahalliy madaniy qadriyatlarni jonlantirishga xizmat qilmoqda. Sayyohlarga xizmat ko'rsatuvchi fuqarolar milliy liboslar, urf-odatlar, hunarmandchilik an'analarni namoyish qilish orqali ularni saqlash va rivojlantirishga undalmoqda. Buning natijasida:

- Surxondaryo viloyatining Boysun tumanida "etnoturizm festivali" doirasida qadimiy musiqa asboblari, raqs va ovqat tayyorlash an'analari qayta jonlantirilgan.

- Sayyohlar uchun mahalliy aholi tomonidan tashkil etilgan teatr sahnalashtirishlar, folklor chiqishlari va ko'rgazmalar orqali madaniy almashinuv kuchaymoqda.

c) Gender tenglik va ijtimoiy inklyuziya Ekoturizmga ayollar va yoshlarning faol ishtiroki kuchaygan. Tadqiqot davomida aniqlanishicha:

- So‘rovda qatnashgan ayollarning 54 foizi ekoturizm ularning iqtisodiy mustaqilligini oshirganini bildirgan.

- Toshkent viloyatining Bo‘stonliq tumanida ayollar boshchiligidagi 10 ga yaqin oilaviy mehmonxona va oziq-ovqat korxonalari faoliyat yuritmoqda.

Bunday natijalar ijtimoiy tenglikni ta‘minlash, oilaviy farovonlikni oshirishga xizmat qilmoqda.

d) Ijtimoiy infratuzilma rivoji

Ekoturizm hududlarida sayyohlar ehtiyoji uchun yaratilayotgan infratuzilma mahalliy aholi uchun ham muhim xizmatlarni taqdim etmoqda. Jumladan:

- Zarafshon milliy bog‘iga olib boruvchi yo‘l, elektr ta‘minoti va mobil aloqa infratuzilmasi yangilangan.

- Yangi dorixona, tibbiy punktlar, maktab filiallari ochilgan — bu esa ijtimoiy xizmatlardan foydalanish darajasini yaxshilagan.

SWOT tahlil

Kuchli tomonlar 	Boy va xilma-xil tabiiy resurslar, madaniy meros, mahalliy aholi qo‘llab-quvvatlovi, ekologik qonunchilik asoslari mavjudligi
 Zaif tomonlar	Ekoturizm infratuzilmasining cheklanganligi, kadrlar yetishmovchiligi, transport logistikasi muammolari
Imkoniyatlar	Xalqaro grantlar va investitsiyalar, UNESCO loyihalarida ishtirok etish, regional hamkorlik kengayishi
Tahdidlar	Tabiat resurslarining haddan tashqari ekspluatatsiyasi, mavsumiylik, sayyohlar oqimi ortishi sababli ekologik yuklama kuchayishi

Muhokama

Tadqiqot natijalari O‘zbekistonning ayrim hududlarida ekoturizmning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga qanday ta‘sir qilganligini ko‘rsatib berdi. Ekoturizm faqat tabiiy resurslardan foydalanuvchi soha sifatida emas, balki iqtisodiy o‘shish va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligi namoyon bo‘ldi.

Ekoturizm va iqtisodiy barqarorlik

Ekoturizm O‘zbekistonda iqtisodiy rivojlanishning yangi manbalarini keltirib chiqarishga yordam berdi. Mahalliy aholi uchun yangi ish o‘rinlari yaratish, mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarishni ko‘paytirish, shuningdek, turizm sohasiga investitsiyalarni jalb qilish orqali iqtisodiy o‘shish kutilganidan tez rivojlandi. Biroq,

ba'zi hududlarda ekoturizmning to'liq potensialini amalga oshirishga halaqit beruvchi omillar mavjud.

Ekoturizmning ijtimoiy rivojlanishga ta'siri

Ekoturizmning ijtimoiy rivojlanishga ta'siri o'ta muhim bo'lib, u nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi, balki jamiyatning madaniy, ekologik va ijtimoiy tizimlarini ham mustahkamlaydi. Tadqiqot davomida ekoturizm orqali mahalliy aholining ekologik va madaniy ongidagi o'zgarishlar ta'siri aniqlangan.

Ekologik ong va ta'lim

Ekoturizmning eng yaxshi tomonlaridan biri – u ekologik savodxonlikni oshirishga yordam beradi. Tadqiqotda ishtirok etgan respondentlarning 70 foizi ekoturizm tufayli tabiatni himoya qilish, chiqindilarni to'g'ri ajratish va qayta ishlash borasida yangi bilimlarga ega bo'lishganini bildirishgan.

- Ekoturizmda faol ishtirok etgan yoshlar sonining ortishi kelajakda jamiyatning ekologik mas'uliyatini oshirishi kutilmoqda. Xalqaro ekologik loyihalar va yoshlar uchun maxsus ekologik aksiyalar orqali mahalliy jamoalar ekologik muammolarga e'tibor berishadi.

Madaniy merosning saqlanishi va rivojlanishi

Ekoturizm madaniy merosni saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonning ko'plab hududlarida ekoturizm orqali mahalliy san'atkorlar, hunarmandlar va an'anaviy ustalar o'z ishlarini jahon bo'ylab tanitishda yordam olgan. Misol uchun, Buxoro va Samarqand viloyatlaridagi hunarmandchilik sohalarida ekoturizmning rivojlanishi orqali mahalliy san'at va hunarmandchilikni eksport qilish va iqtisodiy jihatdan yuksaltirish mumkin bo'lgan.

Xulosa

Tadqiqot davomida O'zbekistonda ekoturizmning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga ko'rsatgan ta'siri har tomonlama tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, ekoturizm nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlovchi soha sifatida, balki mahalliy aholini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlovchi samarali vosita sifatida ham katta ahamiyatga ega.

Ekoturistik faoliyat orqali aholining ekologik madaniyati yuksalib, tabiatga mas'uliyatli munosabat shakllanmoqda. Jumladan, infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmagani, ekologik standartlarga mos turizm infratuzilmasining yetishmasligi, moliyalashtirish va soliq imtiyozlarining cheklangani, hamda turizm sohasida malakali kadrlar yetishmovchiligi ekoturizmning to'laqonli rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda. Shu asosda quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

- Ekoturizm bo'yicha milliy strategiyani ishlab chiqish va uni barqaror rivojlanish maqsadlariga integratsiya qilish;
- Qishloq va tog'li hududlarda zarur infratuzilmalarni rivojlantirish, xususan, ekologik transport, mehmonxona va yo'l infratuzilmasini takomillashtirish;

- Ekoturizm subyektlari uchun soliq imtiyozlari, grantlar va subsidiyalar orqali moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini joriy etish;
- Ekoturizm sohasi uchun maxsus kadrlar tayyorlash va mahalliy aholiga ekologik ta'lim berish tizimini yo'lga qo'yish;

Umuman olganda, O'zbekistonda ekoturizm sohasining rivojlanishi milliy iqtisodiyot va jamiyat uchun katta strategik ahamiyatga ega. Bu yo'nalish O'zbekistonni xalqaro turizm xaritasida barqaror va ekologik mas'uliyatli davlat sifatida namoyon etishi, mahalliy aholi farovonligini oshirishi va kelajak avlodlar uchun tabiiy boyliklarni asrab-avaylashga xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-martdagi "2022–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining milliy rivojlanish strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi. (2023). "Ekoturizmni rivojlantirish konsepsiyasi – 2030". Toshkent.
3. Karimov, M. (2021). "O'zbekistonda barqaror turizm: muammolar va imkoniyatlar". Toshkent: "Fan va taraqqiyot" nashriyoti.
4. Xaydarov, A., & Mamatqulov, R. (2022). Ekoturizm va ekologik xavfsizlik: O'zbekistondagi amaliy tajribalar. "Iqtisodiyot va innovatsiyalar" jurnali, 4(3), 56-64.
5. Rasulova, D. (2020). Ekoturizmning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati. "Barqaror rivojlanish yo'lida fan" jurnali, 2(1), 87-92.
6. World Tourism Organization (UNWTO). (2021). "Sustainable tourism and rural development". Retrieved from <https://www.unwto.org/>
7. UNEP & UNWTO. (2005). "Making Tourism More Sustainable: A Guide for Policy Makers". Retrieved from <https://www.unep.org/>
8. Weaver, D. (2001). "Ecotourism". Milton: Wiley Australia.
9. Honey, M. (2008). "Ecotourism and Sustainable Development: Who Owns Paradise?" (2nd ed.). Washington, D.C.: Island Press.
10. Statistika agentligi huzuridagi Turizm bo'yicha ma'lumotlar bazasi. (2023). "O'zbekiston Respublikasida ekoturizm sohasi bo'yicha statistik ma'lumotlar". Toshkent.